

**KLASTERLARNI RIVOJLANTIRISHNING YEVROPA MODELI**

*Qoraqalpoq davlat universiteti Turizm yoʻnalishi magistranti*

***Saydullayeva Dilobar Gʻayrat qizi***

*Elektr pochta: dilobarsaydullayeva1@gmail.com*

*Telefon nomer: +998881238894*

***Annotatsiya:*** Klasterlar kichik va oʻrta biznes sohalarida innovatsion jarayonlarda va yirik sanoat ishlab chiqarishda tanilgan. Dunyoda koʻplab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda tarmoq klasterlari biznes – birlashmalarni tashkillashtirishni odatiy shaklidir. Yevropa modelini rivojlantirish uchun muhim hududlar – Yevropa hamjamiyatining asosiy faoliyat yoʻnalishlaridan sanaladi.

***Kalit soʻzi:*** Shotlandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Finlandiya.

Shotlandiyada integratsiyalashgan muassasalarni shakllantirish va mutaxassislarni tayyorlash, mahalliy infratuzilmani nazorat qiladigan, marketing tadqiqotlari va investitsion ishlanmalar olib boradigan tashabbuskor mahalliy muassasalar tarmogʻini yaratish orqali amalga oshiriladi.

Shotlandiya klaster modelida dunyo miqyosidagi kompaniyalarning mavjudligi eʼtiborga olinadi. Yuqori texnologiyalar bozori Shotlandiyada kuchli darajani egallaydi. Yevropada sotilgan shaxsiy kompyuterlarning deyarli yarmi Shotlandiya sanoat klasteri tomonidan ishlab chiqarilgan. Ushbu mamlakatdagi yirik sanoat klasterlariga yuqori informatsion texnologiyalar, kemasozlik, tekstil, elektrotexnik va oziq-ovqat mahsulotlari klasterlari kiradi.

Germaniyada hududlarni rivojlanishida federal tuzilma yordamlashadi. Bunday yerlarga katta erkinliklar berilgan va mablagʻlari hisobidan shaxsiy dasturlar asosida hudud rivojlantirilgan. Mamlakat yuqori texnologiyalar ostida rivojlanayotgan boʻlib, ushbu yoʻnalishda sanoatni va ilmiy markazlarni kuchaytirish ishlari olib borilmoqda.

Sanoat klasterining moliyaviy resurslari federal va mahalliy manbalar tomonidan qa'bul qilinadi. Germaniyada dunyodagi 7 ta yuqori texnologiyali klasterlardan 3 tasi mavjud bo'lib, ular faxriy "xxi asrning kremniy vodiysi" (Силиконовая долина XXI века) nomini olgan Myunxen, Gamburg, Drezden shaharlari hisoblanadi. Avtomobilsozlik bo'yicha hududiy klasterning yorqin namunalari sifatida Verbund Initiative Automobil Nordrhein Westfalen (VIA NRW Shimoliy Reyn- Vestfaliya) ni aytib o'tish mumkin.

Shimoliy Reyn -Vestfaliya Germaniya avtomobil sanoatining 1/3 qismi to'plangan. Avtomobilsozlik hududining eng yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Deyarli 200 ming nafar ishchi xodim, 800 ga yaqin ta' minotchi tashkilotlarni mujassamlashtirgan. Bu yerda Ford, Opel va Daimler Chrysler zavodlari joylashgan. Germaniyaga yetakchi klasterlar qatorida kimyoviy, elektr jihozlari, transport texnologiyalari ishlab chiqaruvchi, poligrafik klasterlarni ham ta'kidlab o'tish kerak.

Buyuk Britaniyada 1990 – yillarning o'rtalarida bashoratli texnologik dastur natijasida sanoat siyosatining muhim yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Bu o'z navbatida dunyo bozorida o'sib borayotgan doimiy raqobatdoshlikka tarmoq klasterlarini tuzish yondashuviga asoslangan. Mana 20 yildan oshdiki Shotlandiya, Uilis, Shimoliy Irlandiya va Shimoliy- sharqiy Angliya kabi davlatlar hududni samarali dinamik rivojlanishi uchun avtomobil, elektronika, kimyo va shuningdek boshqa an'anaviy sohalarda: oziq ovqatlar va ichimliklar, kiyim kechaklar va tekstil ishlab chiqarishga moslashgan.

Fransiya boshqa mamlakatlarga qaraganda yangi xo'jalik shakliga qiyin o'tgan. Buning asosiy sababi 30 % mahsulot, eksportning ¼ qismi, ishchi kuchlarining 25%ini o'zida mujassam etgan kuchli markazlashgan davlat sektorining mavjudligi bo'lgan. 1995- yilda hududni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha dastur qa'bul qilingan. Hududni rivojlanish bo'yicha tashkilot va fond tuzilgan. 1997-1999-yillar davomida dastur loyihasi ishlab chiqilgan va ishlab chiqaruvchi klasterlar tizimini birlashtiruvchi hududni rivojlantirishning 99 ta loyihasi tasdiqlangan. An'anaviy ishlab chiqarish tarmoqlarida ( mashinasozlik,

tekstil, yog‘ochga ishlov berish, mebel) texnik yangiliklarni tadbqiq etildi: avtomotizatsiya, kombinatsiyalashtirish qadoqlash, xodimlar tayyorlash. Yangi tovarlar multimedia, mikroelektronika, biotexnologiya sohalarida rivojlandi.

Finlyandiyada klasterli yondashuvda iqtisodiy tuzilmalar tahlili dastlab, 1991-1993- yillarda mamlakat sanoat siyosatining ishlab chiqarilganligidan so‘ng ommalasha boshladi. Klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha munozaralar 1990- yilning boshlarida M. Porterning kitobida keltirilgan. M. Porterning nazariyasi asosida Finlandiyada keng ko‘lamdagi ishlar olib borilgan. Finlyandiya iqtisodiyoti instituti tomonidan bajarilgan “Fransiya afzalliklari “ loyihasi doirasida, milliy sanoatning kelajak imkoniyatlari va boshqaruv qarorlarining informatsion ta’minlanganlik imkoniyatlar o‘rganilgan.

Savdo va sanoat vazirligi Milliy sanoat strategiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan ko‘rsatmalar tayyorlanadi. Bu makroiqtisodiy boshqarishdan sanoat va texnologik raqobat siyosatiga klasterlarni rivojlantirish asosida o‘tish haqida bo‘lgan. Bunda istiqbolli tarmoqlar deb qaralgan barqaror eksport va xorijiy investitsiyalar mavjudligiga qaralgan "Klasterli karkas" aniqlangan bo‘lib, buni ishlab chiqishda katta ishlar amalga oshirilgan. O‘rmon xo‘jaligi, rangli metallurgiya, energetika, telekommunikatsiya, ekologiya, sog‘liqni saqlash, transport, kimyo, qurilish sohalarining klaster xaritalari tashkil etildi. Kemasozlik klasteri qayta yaratildi. 1990- yillarda Finlandiyada amalga oshirilgan ishlar natijasida mamlakat iqtisodiyoti asta o‘sovchi bazaviy sohadan yuqori texnologiyalar va klasterlarga asoslangan rivojlanayotgan iqtisodiyotga o‘tdi

Xulosa qilib aytganda turizm sohasida dam olish va sayohatni rivojlantirishda klasterli yondashuvga mos keladigan xususiyatlar mavjud. Turizm sohasida tarmoqlararo munosabatlarning kengligi , kichik va o‘rta biznesning ustunligi shular jumlasidandir.

**ADABIYOTLAR.**

1. «O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 21-sonli Prezident qarori 12.01.2024 PQ-21
2. Porter M. (2001) Competition Moscow: Publishing House Williams. -P. 207
3. Шкежев, Р.Х. (2012) Стратегическое управление взаимодействием субъектов Интеграционных структур региональной экономики / Р. Х. Шкежев // Региональная Экономика и управление: электронный научный журнал. № 2 (30)
4. К.Т.Каленов Turistik klasterler. / Oqiw qollanba./ – NOKIS: “ILIM NUR”, 2024 jil – 274 b.
5. Каленов, К. (2021). АГРАР СОҲАДА СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИНИ ЙУЛГА ҚУЙИШНИНГ ЖАҲОН ТАЖРИБАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Iqtisodiyot va ta’lim*, (4), 343-347.
6. Tursynbaevich, A. R., Tlegenovich, K. K., & Kairatovich, K. Z. (2023). CHINA URGANISH MARKET AND EXPORT KILINADIGAN VILLAGE HOUSEHOLD PRODUCTS INSURANCE PRODUCTS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 1-7.
7. Каленов, К. Т. (2014). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ НОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ОБЛАСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО СТРАХОВАНИЯ. *The Way of Science*, 51.
8. Kalenov, K., & Utemuratova, R. (2024). Information necessary for the distribution of liability between partners in export cargo logistics services insurance the Republic of Uzbekistan. *Modern Science and Research*, 3(1).
9. Tlegenovich, K. K., Istamovich, R. N., & Baxadirovna, U. R. (2024). Modern Trends and Factors of Financial Development of the Agricultural Sector in the Republic of Karakalpakstan, Taking Into Account Agricultural Insurance. *Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777)*, 2(1), 97-101.

10. Каленов, К. Т., & Калимбетов, Б. И. (2022). Экономическое развитие аграрного сектора сложно экологических зон: на примере республики Каракалпакстан. In *Экономическое развитие России: точка баланса в мировой экосистеме и инфраструктура будущего* (pp. 123-129).
11. Каленов, К. (2021). Использование мировой практики отключения страховых услуг в аграрной сфере. *Экономика И Образование*, (4), 343-347.
12. Каленов, К. Т. (2021). Тенденции и факторы финансового развития аграрного сектора с учетом агрострахования в республике Каракалпакстан.
13. Kalenov, K. T., Kalbaeva, I. E., & Koblanov, Z. K. (2014). PROSPECTS FOR LIVESTOCK INSURANCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *The Way of Science*, 16.
14. Каленов, К. Т. АЎЫЛ ХОЖАЛЫҒЫ КӘРХАНАЛАРЫНДА ҚАМСЫЗЛАНДЫРЫҰ ХЫЗМЕТЛЕРИН КЛАССИФИКАЦИЯЛАҰ ТИЙКАРЫНДА ЖОЛҒА ҚОЙЫҰ. МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ БЕРДАХА, 184.
15. Адильчаев, Р. Т., Каленов, К. Т., & Узаков, Р. М. (2021). ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ ФИНАНСОВОГО РАЗВИТИЯ АГРАРНОГО СЕКТОРА С УЧЕТОМ АГРОСТРАХОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН. In *Управление в XXI веке-проблемы и перспективы* (pp. 302-310).
16. Каленов, К., & Юлдашева, А. (2024). ТУРИЗМНИ ДОЙИМИЙ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТРАНСПОРТ СОҲАСИНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 3(30), 15-18.
17. Kalenov, K., & Ganieva, E. (2024). Respublikamizda turizm sohasini doyimiy rivojlantirishda transport xizmatini takomillashtirish. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 2(2), 333-337.
18. Kalenov, K., & Utemuratova, R. (2023). QISHLOQ XO ‘JALIGI KORXONALARIDA XATARLARINI O ‘ZARO SUG ‘URTALASH

JAMIYATLARI TASHKIL ETISH ORQALI SUG 'URTALASHNING XORIJ  
TAJRIBASIDAN FOYDALANISH. *Евразийский журнал академических  
исследований*, 3(3 Part 2), 100-105.